DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18143438

XALQ ERTAKLARI: TARIXIY MANBALAR, OBRAZLAR TIZIMI VA BADIIY TALQIN

Amanova Dilobar Suvonqulovna
Jizzax viloyati G‘allaorol tumani 24-maktab
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
E- mail: tulishovag@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada xalq ertaklarining tarixiy manbalari, shakllanish bosqichlari va ularning badiiy-poetik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ertaklarning mifologik ildizlari, marosim folklori va qadimiy e’tiqodlar bilan bog‘liqligi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, ertaklarning janr tasnifi, syujet-kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi hamda ularning tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyati o‘rganiladi. Maqolada xalq ertaklari milliy tafakkur, tarixiy xotira va madaniy merosni saqlashda muhim ijtimoiy-estetik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: *xalq ertaklari, folklor, tarixiy manbalar, mifologik ildizlar, syujet va motiv, badiiy xususiyatlar, obrazlar tizimi, xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy meros, poetika.*

FOLK TALES: HISTORICAL SOURCES, CHARACTER SYSTEM, AND ARTISTIC INTERPRETATION

ABSTRACT

This article examines the historical sources, formation stages, and artistic-poetic features of folk tales. The study highlights the connection of fairy tales with mythological roots, ritual folklore, and ancient beliefs from a scholarly perspective. The article analyzes the genre classification, plot structure, character system, as well as the educational and moral significance of folk tales. Folk tales are interpreted as an important socio-aesthetic phenomenon that preserves national consciousness, historical memory, and cultural heritage.

Key words: *folk tales, folklore, historical sources, mythological roots, plot and motif, artistic features, character system, oral tradition, cultural heritage, poetics.*

KIRISH

Ertak tushunchasi turli ilmiy manbalarda turlicha talqin etilsada, tadqiqotchilar fikricha, u xalq tafakkuri, badiiy kashfiyoti va ijtimoiy xotirasining muhim mahsuli sifatida shakllangan janrdir. Ertaklarda xalqning qadimiy dunyoqarashi, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, axloqiy talablari, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari turli badiiy timsollar orqali ifoda etiladi. Shu bois ertaklar nafaqat estetik hodisa, balki tarixiy-ma’naviy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ertaklarning tarixiy ildizlarini aniqlashda mifologik qarashlar, totemistik e’tiqodlar, qahramonlik rivoyatlari va qadimiy diniy tasavvurlar muhim o‘rin tutadi. Ular dastlab marosim folklori, mif va afsonalar tarkibida shakllanib, keyinchalik mustaqil epik janr sifatida rivoj topgan. Qiyosiy folklorshunoslik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, turli xalqlar ertaklari o‘rtasidagi syujet va motivlar o‘xshashligi ularning qadimiy umumiy manbalardan oziqlanganidan dalolat beradi. Biroq bu jarayonda milliylik belgilarining saqlanib qolishi, har bir xalq ertaklarining o‘ziga xos badiiy uslub va obrazlar tizimida namoyon bo‘lishi alohida ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalq og‘zaki ijodini o’rganuvchi olimlarning takidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilish asoslarida o’xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. “Ertaklarning bu xususiyati ham ularning juda qadimdan yaratilganidan, turli xalqlar maishiy hayotida o’xshashliklarning ko’pligidan darak beradi. Ammo bu degan so’z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar matnidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida, maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida, hunarlarda milliy til, milliy ruh alohida aks etadi. Xalq ertaklarining ommaviyligi va yashovchiligini ham ularning shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin”[1]. Har bir davr o’ziga xos ertaklarni yaratdi. Inson munosabatlarining barcha xilma-xilligi ularda muhrlangan. Aynan xalq rivoyatlarida kulgu va ko’z yoshlar, quvonch va azob-uqubatlar, sevgi va g‘azab, haqiqat va yolg‘on, iymon va iymonsizlik, mehnatsevarlik va dangasalik, halollik va yolg‘on bizgacha yetib kelgan.

Mashhur rus shoirlari va yozuvchilari xalq ertaklaridan ilhom olishgan. A.S. Pushkin, ularning har biri haqiqiy she’r ekanligini aytadi, V.G. Belinskiy esa “ularni qimmatbaho tarixiy hujjatlar deb atash orqali ularning ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlagan. A.M. Gorkiy rus ertagining “oldinga qarash” qobiliyati kabi muhim xususiyati haqida yozgan”[2]. Ertak syujetlarini o’rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning eng dolzarb yo’nalishlaridan biri hisoblanadi: A.N.Veselovskiy o’zining “Syujetlar poetikasi” nomli asaridayoq bu mavzuga murojaat qilgan”[3]. Rus xalq ertaklarining ilk tadqiqotchisi I.A.Xudyakov hisoblanadi, u barcha ertaklarni xalqning o’z og‘zidan bevosita eshitib, yozib olgan va “Buyuk rus ertaklari” to’plamida jamlagan” [4]. Rus tarixchisi, adabiyotshunosi va folklorshunosi A.N. Afanasev o’zi to’plagan rus xalq ertaklarini nashr ettirish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki “Slavyanlarning tabiatga she’riy qarashlari” nomli fundamental asarini ham yaratdi”[5] morfologiyasi” va “Ertakning tarixiy ildizlari” nomli asarlari ushbu yo’nalishdagi barcha izlanishlar uchun asos bo’lib xizmat qiladi”[6]. Ertak – folklor yoki adabiyotga xos bo’lgan janrlardan biri hisoblanadi. Sehrli, qahramonlik yoki kundalik xarakterdagi epik, asosan prozaik asar bo’lib, ertaklar asosan o’zida aks ettirilayotgan voqeaning tarixiyligiga da’vo qilmaydi, shuningdek, syujetining fantastikaga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Ertaklarning janr tarkibi va tasnifi: Folklorshunoslikda ertaklar odatda quyidagi guruhlarga bo‘linadi: sehrli (fantastik) ertaklar, maishiy-axloqiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, qahramonlik ruhidagi ertaklar. Sehrli ertaklarda mo‘jizaviy motivlar, g‘ayritabiiy kuchlar, sehrli yordamchilar va sinovdan o‘tuvchi qahramon obrazi markaziy o‘rin egallaydi. Maishiy ertaklarda esa xalq turmushi, kundalik munosabatlar, ijtimoiy tengsizlik va adolat mavzulari kulgili va satirik ruhda badiiy talqin etiladi. Hayvonlar haqidagi ertaklar esa ko‘proq ma’rifiy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, ular orqali bolalarda axloqiy fazilatlar shakllantiriladi. V. Proppning “Ertak morfologiyasi”ga doir tadqiqotlari sehrli ertaklarning syujet tuzilishi qat’iy qonuniyatlarga asoslanishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa ertaklarning nafaqat badiiy, balki strukturaviy jihatdan ham mukammal janr ekanini ko‘rsatadi. Xalq

ertaklarining badiiy-poetik xususiyatlari: Xalq ertaklarining badiiy qimmati avvalo quyidagi unsurlarda namoyon bo‘ladi: timsollar ramziy mazmun kasb etadi, ezgulik va yovuzlik kurashi markazda turadi, qahramon sinov orqali kamolotga yetadi, dialog va takroriy kompozitsiya keng qo‘llanadi, xalqona til, maqol va hikmatlar boy ishlatiladi. Ertak qahramonlari – botir yigit, aqlli qiz, dono qari, aldovchi makkor obrazlari orqali ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar singdiriladi. Tabiat tasvirlari, mehnat jarayonlari, kasb-hunarlar, urf-odatlar tasviri esa ertaklarning milliy ruhini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. Ular yosh avlodda jasorat, sabr-toqat, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Faylasuf I.A.Ilin ta’biri bilan aytganda, “ertak – bu odamlarning eng birinchi, din paydo bo’lgunga qadar mavjud bo’lgan ilk falsafasi, ularning erkin afsonaviy obrazlar orqali va badiiy shaklda bayon qilingan hayot falsafasidir”[7]. Unda olam manzarasining eng arxaik tasvirlari aks ettirilgan, mifologiya va qahramonlik eposi bilan chambarchas bog‘liq bo’lgan mifologiyaning asoratlari aynan ertak tarkibida keltirilgan. Natijada, ertaklar, hatto keyingi o’zgarishlarga qaramay, zamon va makon, qahramon va uni o’rab turgan atrof-muhit haqidagi arxaik tasavvurlarning manbai hisoblanadi. Ular badiiy makonni ahamiyat mezoniga ko’ra tashkil etadigan shaxsning konseptual tizimini o’rganish uchun material bo’lib xizmat qiladi. Ertaklar o’zlarining dastlabki paydo bo’lish hududlari – qadimgi Hindiston va Sharqning sehrli mamlakatlaridan chiqib, keng maydonlarni zabt etdi, mardonavor tarzda insonning fikrini egallab olishga musharraf bo’ldi, aytish mumkinki, zafar yo’lini bosib o’tdi, va tabiiyki, shu g‘alaba asnosida insoniyat ongiga yangi tendensiyalarni kiritdi, undagi azaliy xurofotlarni yo’q qilib, yangi hayotga boshladi. “Ertaklar insonlarning odatiy bir zayldagi hayotiga tetiklik va jozibaga to’la yangi oqimni olib kirdi, insonga olloh in’om etgan eng buyuk sovg‘a – aql va xayolotni rivojlantirishi uchun juda ko’p, ijobiy ma’nodagi turtki berdi. Ertak o’zining zalvorli yurishi bilan alohida-alohida bo’lgan xalqlarni birlashtirdi, bir xalqning vakillariga noaniq, hayoliy obrazlarda bo’lsa ham, boshqasi haqida yangiliklarni yetkazib berdi, shu tariqa, boshqa yurtlardagi hayot haqidagi bilimlarni egallashga katta qiziqish

uyg‘otdi. Ertak bu abadiy yashaydigan va abadiy yosh bo’lgan yodgorlik bo’lib, unga zamonaviy madaniyat to’liq hurmat va minnatdorchilik bildirishi kerak, chunki har qanday madaniyat asosida ertak tomonidan tamal toshi qo’yilgan insonning ezgulik va yovuzlik mohiyati haqidagi asosiy tushunchasi yotadi”[8]. “Ertak biz uchun eng umumiy ma’noda bo’lgan haqiqatning jonli, o’lmas tarixi, ammo boshqa tomondan, ular har bir millatning o’ziga xos xususiyatlari, hayoti, tarixi va tabiat hodisalariga bo’lgan qarashlarini bayon qiladi. O’z ertaklari bo’lmagan xalqni tasavvur qilish mumkinmi? Bolalikdan mehr-oqibat, muloyimlik va o’zaro muhabbatga o’rgatadigan ertaklar mavjud bo’lmaganda edi, bolalardan fikrlash doirasi tor bir-birini tushunmaydigan, faoliyat doirasi nihoyatda cheklangan va faqatgina o’zlarini o’ylaydigan odamlar yetishib chiqqan bo’lar edi”[9]. Ertakning asosiy vazifalaridan biri bu uning ijtimoiy va tarbiyaviy vazifasidir.

XULOSA

Ertaklar – insoniyatning eng qadimgi ma’naviy meroslaridan bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, tarixiy xotirasi, orzu-umidlari va ma’naviy qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Ular turli davrlar davomida og‘zaki ijod shaklida avloddan avlodga o‘tib, har bir xalqning milliy ruhini, turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarini va estetik qarashlarini o‘zida aks ettirib kelgan. Ertaklarning shakllanishi va rivojlanishida xalqning ijtimoiy hayoti, e’tiqodlari, turmush sharoiti va tarixiy tajribasi muhim o‘rin tutadi. Dunyo xalqlari ertaklarida umumiylikning mavjudligi – insoniyat tafakkurining umumiy ildizlari va qadimgi tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, har bir xalq ertaklarida milliylik, til, madaniyat, tarix va ruhiyatning o‘ziga xos jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois ertaklarni nafaqat badiiy hodisa, balki milliy o‘zlikning muhim ko‘zgusi sifatida ham talqin qilish mumkin. Xalq ertaklari orqali milliy tafakkur, xalq donishmandligi va badiiy estetik qarashlar avloddan-avlodga yetib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фольклор анъаналари. –Тошкент: “Истиқлол”, 2005. – Б. 83

2. Аникин. В. П. Русское устное народное творчество. – М., 2001. – С. 447

3.Веселовский А. Н. Три главы из исторической поэтики // Историческая поэтика. – Ленинград, 1940. – С. 317

4. Худяков. И.А. Великорусские сказки. Великорусские загадки Текст. – СПб: Тропа Троянова, 2001. – С. 413.

5. Афанасьев А. Н. Народные русские сказки в трех томах. – М., 1957. – С. 127

6. Пропп В. Я. К вопросу о происхождении волшебной сказки // Сов. этнография, 1934, № 1-2. – С. 128-151

7. Ильин И.А. Одинокий художник / Сост. предисл. и примеч. В.И. Белов. – М.: Искусство, 1993. – С. 240.

8. Никифоров А.И. Мотив, функция, стиль и классовый рефлекс в сказке //Сб. статей к сорокалетию ученой деятельности акад. А.С. Орлова. – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1934. – С. 290.

9.Зайцев А.И. К вопросу о происхождении волшебной сказки//Фольклор и этнография. – Ленинград, 1977. – С. 69-77.